

NO'XAT O'SIMLIGI

*Egamova Yodgora Alisherovna**Urganch davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti
Biologiya yo'nalishi talabasi*

Annotasiya: Maqolada no'xat o'simligi haqida keng ma'lumotlar berilgan va uning tuzilishi (morfologiyasi) haqida xam to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ag'al, qovurg'ali, sershox, tukli, bo'z, kashtan, surrogat, kofe.

Аннотация: В статье представлена обширная информация о растении гороха, а также рассмотрено его строение (морфология).

Ключевые слова: молодняк, ребристый, рогатый, мохнатый, серый, каштановый, суррогатный, кофейный.

Abstract: The article provides extensive information about the pea plant and also discusses its structure (morphology).

Key words: young, ribbed, horned, hairy, gray, chestnut, surrogate, coffee.

No'xat — dukkaklilar oilasiga mansub bir yillik o'tsimon o'simlik turkumi, dukkakli don ekini. 30 dan ortiq, asosan, ko'p yilli Turlari Yevroсиyo, Shimoliy va Sharqiy Afrikada uchraydi. Juda qadimdan bir yillik madaniy turi (*C. arietinum*) Hindiston, Italiya, Ukraina janubi, Zakavkazye, Qozog'iston, O'rta'Osiy o, Gretsiya, Bolgariya, Misr, Jazoir, Turkiya va Eronda ekiladi. Madaniy N.ning ildizi —o'q ildiz (100—150 sm). Poyasi o'tsimon, tik o'sadi, dag'al, qovurg'ali, sershox, tukli, balandligi 30—70 sm. Bargi murakkab, toq patsimon.



Guli ikki jinsli, kapalaksimon, mayda. Rangi oq, sariq, sarg'ish-yashil, och-pushti va ko'k. Mevasi — dukkak, dukagida 1—2 ta, goho 3 ta don bo'ladi. 1000 ta urug'inining vazni 220—300 g, gohida 600 g gacha boradi. Donining rangi oq, pushti, to'q-sariq.

N. g‘ovak, qumoq, yengil sho‘rlangan tuprokli yerlarga ekiladi. Qora, bo‘z, kashtan tuproqlarda mo‘lhosil beradi. N. issiqsevar, yorug‘sevar, baxrri ekin. Boshqa dukkakli ekinlarga nisbatan qurg‘oqchilik va sho‘rga chidamli, urug‘i 2—5° haroratda unib chiqadi, past haroratda sekin o‘sadi. Maysasi bahorgi — 6°dan —8°gacha qorasovuklarga chidaydi. N. gullah va mevasi shakllanish davrida issiklikka talabchan. Namlik me’yordan ortiq bo‘lsa kasallanadi, shona va guli to‘kiladi. O‘zidan changlanadi. O‘suv davri 70—190 kun. N. do-nidan yorma, ayniqsa, o‘zbek pazandachiligida har xil taomlar, qandolat mahsuloti tayyorlanadi, unidan non yopiladi (bug‘doy uniga YU—20% qo‘shiladi), surrogat kofe ishlab chiqariladi. Doni tarkibida 19—33% oqsil, 4-7% moy, 0,2-4,0% kul, 48-61% azotsiz moddalar, 2—12% klechatka, vi-taminlar hamda aminokislotalar mav-jud. N. bug‘doy va g‘o‘za uchun yaxshi o‘tmishdosh hisoblanadi. Bir mavsumda bir gettar yerda N. ildizlari 50—70 kg so‘f modda hisobida azot to‘playdi.

No’xat O‘zbekistonning lalmi yerlarda 6—8 s/ga, sug‘oriladigan yerlarda 2232 s/ga hosil beradi. N. keng qatorlab (qator orasi 45—60 sm) yoki yoppasiga qatorlab (qator orasi 15 sm), ba’zan sepma usulida ekiladi. Ekish usuliga va nav biologiyasi va morfologiyasiga qarab 150—200 kg/ga urug‘ sarflanadi. O‘zbekistonda aksariyat lalmi yerlarda ekiladi. Sug‘oriladigan yerlarda qator orasi 1—2-marta kultivatsiya qilinadi. N. kam sug‘oriladi. Gullah davrida suvni kam me’yorda berish yaxshi natija beradi, to‘liq pishganda bargi to‘kiladi, dukkagi deyarli chatnamaydi, hosili don kombaynlarida yig‘ib olinadi.



Poyasi o‘tsimon, tik o‘sadi, dag‘al, qovurg‘ali, sershox, tukli, balandligi 30-70 sm. Bargi murakkab, patsimon. Guli ikki jinsli, kapalaksimon, mayda. Mevasi dukkak, dukkagida 1-2 ta, goh 3 ta don bo‘ladi. Don rangi oq, pushti, to‘q-sariq, issiqsevar va

yorug‘sevar, bahorgi ekin. Boshqa dukkakli ekinlarga nisbatan qurg‘oqchilik va sho‘rga chidamli, urug‘i 2-5°C haroratda unib chiqadi, past haroratda sekin o‘sadi. Maysasi bahorgi -6-8°C gacha qorasovuqlarga chidaydi. Namlik me’yordan ortiq bo‘lsa kasallanadi, shona va guli to‘kiladi. O‘zidan changlanadi. O‘suv davri 70-190 kun. Don tarkibida 19-33% oqsil, 4-7% moy, 0,2-4,0% kul, 48-61% azotsiz ekstrativ moddalar, 2-12% klechatka, vitaminlar hamda aminokislotalar mavjud. Bir mavsumda bir hektar yerda no‘xat ildizlari 50-70 kg so‘f modda hisobida azot to‘playdi. Keng qatorlab (qator orasi 45-60 sm) yoki yoppasiga qatorlab (qator orasi 15 sm), ba’zan sepma usulida 5-10 sm chuqurlikda ekiladi. O‘zbekistonda aksariyat lalmi yerlarda ekiladi. Gullash davrida suvni kam me’yorda berish yaxshi natija beradi, to‘liq pishganda guli to‘kiladi, dukkagi deyarli chatnamaydi, hosili don kombaynlarida yig‘ib olinadi.

Hozirgi kunda **O‘zbekistonda no‘xatning 11 navi** yetishtiriladi.

Bugungi kunda yurtimizda yetishtirilayotgan no‘xat mahsuloti **Avstraliya, Avstriya, Ozarbayjon, Afg‘oniston, Belgiya, Buyuk Britaniya, Vyetnam, Germaniya, Hindiston, Indoneziya, Iroq Respublikasi, Eron, Qozog‘iston, Qatar, Xitoy, Koreya, Qirg‘iziston, Latviya, Mongoliya, Niderlandiya, BAA, Pokiston, Polsha, Rossiya, Tojikiston, Tayvan, Turkmaniston, Turkiya, Ukraina** kabi mamlakatlarga eksport qilinmoqda.

Foydalanimgan adabiyotlar.

1. H. Atabayeva, O. Qodirho’jayev “Osimlikshunoslik” Toshkent 2006
2. A. Polthanle and A. Kotcnasatit “Growth, Yield of Mungbean” Pakistan Journal of Biological Sciences 1999
3. SarwarJahon and Abdul Hamid”Effect of Density and planting Configuration on Canopy Development and reproductive effort in Mungbean(Vignaradiata(L) Bangladesh 2006